XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-oktabr VII-12-149-1-19-K/25 Bo‘ston tumani

Bo‘ston tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Andijon viloyati Bo‘ston tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarning umumiy perimetri 208 185 metr umumiy maydoni 20 129,10 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

1. Bo‘z shaharchasi umumiy perimetri 17106 metr, umumiy maydoni 722,68 gektar;

2. Ko‘hinur shaharchasi umumiy perimetri 9688 metr, umumiy maydoni 165,24 gektar;

3. Sariqjo‘ga shaharchasi umumiy perimetri 8339 metr, umumiy maydoni 126,21 gektar;

4. Obod qishlog‘i umumiy perimetri 53810 metr, umumiy maydoni 6 006,61 gektar;

5. Xovos qishlog‘i umumiy perimetri 65737 metr, umumiy maydoni 7 656,15 gektar;

6. Yuksalish qishlog‘i umumiy perimetri 53505 metr, umumiy maydoni 5 452,21 gektar.

Bo‘ston tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi.

Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlari palatasi Bo‘ston tumani filiali rahbarining hisobotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston

Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining Bo‘ston tumani filiali rahbari A.Rahmataliyevning Bo‘ston tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Bo‘ston tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 7-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘ston tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ochildinova) mazkur qarorni tuman hokimligining ijtimoyi tarmog‘ida e’lon qilinishi hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Gaziyevga, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasi hamda kotibiyat mudiri J.Raxmonov zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi NOSIROVA SANABARXON ABDINABIYEVNA

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2025-yil 22-oktabrdagi
VII-12-149-1-19-K/25 -son qaroriga
1-ilova


Bo‘ston tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

T/r	**Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi**	**Umumiy perimetr (metr)**	**Umumiy maydoni (gektar)**
1	Bo‘z shaharchasi	17106	722,68
2	Ko‘hinur shaharchasi	9688	165,24
3	Sariqjo‘ga shaharchasi	8339	126,21
4	Obod qishlog‘i	53810	6006,61
5	Xovos qishlog‘i	65737	7656,15
6	Yuksalish qishlog‘i	53505	5452,21
	Jami	**208185**	**20129,10**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2025-yil 22-oktabrdagi
VII-12-149-1-19-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Bo‘ston tumanining
ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha
SXEMATIK XARITASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan **B** gacha *Baliqchi tumani yerlari*
B dan **D** gacha *Shahrixon tumani yerlari*
D dan **E** gacha *Farg'ona viloyati yerlari*
E dan **A** gacha *Ulug'nor tumani yerlari*

Shartli belgilar

Viloyat chegarasi
Tuman chegarasi
Shaharcha chegarasi
Qishloq chegarasi